

# QURBON HAYITI

Umumxalq bayrami haqida qoʻllanma

SUV SOHASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MARKAZI

TOSHKENT – 2026-YIL

# Qurbon hayiti – mehr-oqibat ayyomi



## Hayit haqida

Qurbon hayiti islom dinidagi eng ulug' bayramlardan biridir. U hijriy taqvim bo'yicha Zulhijja oyining 10-kunida nishonlanadi. Bu bayram haj ibodati bilan ham bog'liq bo'lib, butun dunyodagi musulmonlar uchun shukr, ibodat va saxovat kuni hisoblanadi.

Qurbon hayiti Ibrohim alayhissalomning Allohga bo'lgan itoati va sadoqati bilan bog'liq ulug' bayramdir. Islom manbalarida aytilishicha, Ibrohim alayhissalom tushida Allohning amrini ko'radi. Unga o'g'lini qurbonlik qilish buyuriladi. Qur'onda o'g'ilning ismi aniq tilga olinmagan, biroq islomiy rivoyatlarda u Ismoil alayhissalom ekani aytiladi.

Ibrohim alayhissalom Allohning amriga bo'ysunib, Mino vodiysiga yo'l oladi. Bu hudud hozirgi Makka yaqinida joylashgan. U qurbonlikka tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. O'g'li ham otasining niyatidan xabar topadi va bunga qarshilik qilmaydi. U Allohning irodasiga itoat etib, sabr va ixlos bilan rozi bo'ladi.

Bu voqea aslida Alloh tomonidan berilgan sinov edi. Ibrohim alayhissalom o‘zining itoati va sadoqatini namoyon qilganidan so‘ng, Alloh uning o‘g‘lini asrab qoladi. Qurbonlik esa qo‘chqor bilan almashtiriladi.

*Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston xalqiga Qurbon hayiti munosabati bilan tabrik yo‘lladi. Prezident o‘z murojaatida mo‘min-musulmonlarni va butun xalqni muborak ayyom bilan qutlab, tinchlik, mehr-oqibat va sahovat bayrami bo‘lgan Iyd al-Adha bugungi islohotlar mazmuniga hamohang ekanini ta’kidladi.*



Davlat rahbari tabrikda Qurbon hayiti jamiyatda insonparvarlik, hamjihatlik va saxovat muhitini mustahkamlashga xizmat qilayotganini qayd etdi. “Ko‘pmillatli yurtimizda osoyishtalik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, yordamga muhtoj insonlar, muhtaram nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarimizda Qurbon hayitining ezgu an‘analari kuch-g‘ayrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda”, deyiladi tabrikda.

Prezident keyingi yillarda O‘zbekistonda islom dini merosini o‘rganish va targ‘ib etish ishlari yangi bosqichga ko‘tarilganini ta’kidladi. Xususan, Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi hamda Marg‘ilondagi Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma’rifiy va turizm majmualari Yangi O‘zbekistonning muhim ma’naviy loyihalari sifatida qayd etildi.

Tabrikda bu yil tarixda ilk bor “Prezident hojilari” dasturi joriy etilgani ham eslatib o‘tildi. Qayd etilishicha, ushbu dastur doirasida el-yurtga xizmat qilgan 100 nafar ulamo, nuroniy va mahalla faollari hamda ularning oila a‘zolari haj safariga yuborilgan.

Shuningdek, prezident ayni kunlarda 15 mingdan ortiq O‘zbekistonlik muqaddas haj amallarini ado etayotganini bildirib, barcha hojilarning ibodatlari qabul bo‘lishini tiladi. “Muqaddas ziyoratdan qaytib keladigan bu hurmatli yurtdoshlarimiz ezgulik va ma’rifat targ‘ibotchilari sifatida jamiyatimizda faol ishtirok etadilar, deb umid qilamiz”, dedi davlat rahbari.

### **Hayit tongini poklik bilan boshlash**

Qurbon hayiti kuni musulmonlar tongni poklik bilan boshlashga harakat qiladi. Hayit namoziga borishdan oldin g‘usl qilish, toza kiyim kiyish va xushbo‘y hidlardan foydalanish odob sanaladi. Bu amallar bayramga hurmat ifodasidir.

Hayit kuni inson tashqi ko‘rinishi bilan ham, ichki holati bilan ham pok bo‘lishga intiladi. G‘azab, adovat, hasad va ginani chetga surish, yaqinlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish bayram ruhiga mos keladi.



### **Hayit namoziga borish**

Qurbon hayitining muhim amallaridan biri hayit namozidir. Musulmonlar imkon qadar jamoat bilan namoz o‘qishga harakat qiladi. Bu ibodat musulmonlar birdamligi va bayram shukuhini namoyon etadi.

Hayit namoziga borishda sokinlik, odob va tartibga rioya qilish kerak. Yo‘llarda tirbandlik keltirib chiqarmaslik, boshqalarga noqulaylik tug‘dirmaslik ham bayram madaniyatining bir qismidir. Imkon bo‘lsa, jamoat transportidan foydalanish ham foydali bo‘ladi.

### **Qurbonlik qilishning mazmuni**

Qurbon hayitining eng asosiy amallaridan biri qurbonlik qilishdir. Qurbonlik mol, qo‘y, echki yoki tuya kabi shariatda belgilangan hayvonlardan qilinadi. Bu amal Alloh roziligi uchun bajariladi. Qurbonlik faqat go‘sh tartaqatish emas. Uning asl ma‘nosi banda o‘z molidan bir qismini Alloh yo‘lida sarflashi, muhtojlarni eslashi va saxovat ko‘rsatishidir. Shuning uchun qurbonlikda ixlos muhim o‘rin tutadi.



Qurbonlik qiladigan odam hayvonning sog‘lom, belgilangan yoshga yetgan va nuqsonsiz bo‘lishiga e‘tibor berishi kerak. Qurbonlikni shariat qoidalariga amal qilgan holda, hayvonga ozor bermasdan bajarish zarur.

### **Go‘sh tni muhtojlar bilan bo‘lishish**

Qurbonlik go‘sh tni qarindoshlar, qo‘sh nilar va ehtiyojmandlar bilan bo‘lishish bayramning eng go‘zal jihatlaridan biridir. Bu amal jamiyatda mehr-oqibatni kuchaytiradi. Qurbon hayiti kuni dasturxonlar ko‘payadi, odamlar bir-birini yo‘qlaydi.

Ammo bu bayramda eng avvalo kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, bemorlar va yordamga muhtoj insonlar eslanishi kerak.

Saxovat faqat katta imkoniyatga ega insonlargagina xos emas. Har kim o'z holatidan kelib chiqib yaxshilik qilishi mumkin. Bir og'iz shirin so'z, tabrik, hol so'rash yoki kichik sovg'a ham inson ko'nglini ko'taradi.

Qurbon hayiti kunlarida biz e'tibor beradigan yana bir jihat - mehrga tashna insonlarga bayram shodligini va yaxshi kayfiyat ulashishdir. Bu borada yurtimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi, bayram arafasida kam ta'minlangan va ko'makka muhtoj oilalar holidan xabar olinadi.

Qurbon hayiti oila va qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash uchun yaxshi fursatdir. Bu kunda ota-onani ziyorat qilish, ularning duosini olish va yaqinlarning holidan xabar olish savobli amallardan hisoblanadi.

Agar yaqinlar uzoqda bo'lsa, telefon orqali tabriklash ham yaxshi odobdir. Muhimi, inson bayram kuni atrofidagi odamlarni esdan chiqarmasligi kerak.

Gina-kudurat bo'lgan insonlar bilan yarashish ham Qurbon hayitining ma'naviy jihatlaridan biridir. Bayram qalblarni yumshatadigan, munosabatlarni tiklaydigan kun bo'lishi lozim.



TDR4292

TDR4292

TDR4292

TDR

## **Bolalarga bayram ruhini his qildirish**

Qurbon hayiti bolalar uchun ham quvonchli kun bo'lishi kerak. Ularga bayramning mazmunini sodda tilda tushuntirish muhim. Qurbonlik, saxovat, shukr va mehr-oqibat nima ekanini bolalar avvalo oilada ko'radi.

Bayram kuni bolalarga e'tibor berish, ularga sovg'a ulashish yoki shunchaki birga vaqt o'tkazish ularning xotirasida iliq taassurot qoldiradi. Bu orqali ularda diniy va milliy qadriyatlarga hurmat shakllanadi.

Qurbon hayiti bayram bo'lsa-da, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak. Ortiqcha dabdaba, keraksiz xarajat va ko'z-ko'z qilish bayramning asl mazmuniga to'g'ri kelmaydi.

Dasturxon yozishda ham me'yor muhim. Asosiy e'tibor ko'rinishga emas, niyat va mehrga qaratilishi kerak. Qurbon hayiti kamtarona, samimiy va xayrli amallar bilan o'tkazilsa, uning savobi va fayzi yanada ortadi.

Hayit kunlari marhumlarni eslash, ularning haqqiga duo qilish ham xalqimiz orasida keng tarqalgan odoblardan biridir. Bu amal insonni o'tganlarni unutmazlikka, hayotning qadriga yetishga chorlaydi.

Marhumlarni xotirlashda ham me'yor va odob muhim. Asosiy maqsad ularning ruhiga duo qilish, yaxshilik bilan eslash va o'z hayotimizda ezgu ishlarni ko'paytirishdir.

Qurbon hayiti insonni faqat bir kunlik quvonchga emas, davomli yaxshilikka undaydi. Bu kun shukr qilish, muhtojga yordam berish, yaqinlarni yo'qlash va qalbni poklash fursatidir.

Bayramning asl go'zalligi dasturxonning kattaligida emas, qalbning kengligidadir. Kimdir qurbonlik qiladi, kimdir yordam beradi, kimdir tabriklaydi, kimdir yarashadi. Bularning barchasi Qurbon hayitining ruhiga mos amallardir.



Qurbon hayiti - ulug' bayramdir. Bu kunlarda yana ham mehribon va muruvvatli bo'lib, yetimlar boshini silab, yoshi ulug'lar, kasalmand-u muhtojlardan xabar olinadi, ularning ko'ngillariga ham bayram shukuhini olib kiramiz. Bu kunda gina-kuduratlarni unutib, kechirimli bo'lishimiz maqsadga muvofiqdir.

Bu yil ham Qurbon hayiti bayrami munosabati bilan mamlakatimizning barcha hududlarida alohida tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Masjidlar, diniy markaz va xonadonlarda maxsus tadbirlar o'tkazildi. Har yili bo'lgani kabi, bu yil ham yurtimizda katta shodlik va farah bilan kutib olinadigan ushbu kun, xalqimizning birligi, mehr-oqibati va bag'rikengligining yana bir bor yorqin ifodasi bo'ldi.

Alloh taolodan so'raymizki, Qurbon hayiti yurtimizda tinchlik va farovonlikda xayr-u barakali o'tsin!